

## XXSRda matbuot tizimi, bosmaxonalar va nashriyot ishlari.

**Tillaev Dilmurod Ollaberganovich – Urganch Davlat Pedagogika instituti  
o'qituvchisi**

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** Bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lgan Xorazmda bosmaxona, nashriyot va matbuot tizimi masalasi yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari haligacha to'liq tahlil qilinmagan. Ayniqsa, bu sohada faoliyat yuritgan bosmaxona va nashriyotlar, ularda ishlagan matbaachilar faoliyati tarixi ancha sust o'rganilgan hamda afsuski, faqat oddiy ma'lumotnoma sifatida bizga ma'lum. SHu jihatdan olganda, mazkur maqola Xorazm tarixining dolzarb muammolaridan biriga, ya'ni Xorazm vohasida dastlabki matbuot organlarining vujudga kelishi, bosmaxonalar faoliyati va umuman nashriyot ishlari masalalari tadqiqiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rahimxon I, "Podshohi zamon tipolitografiyasi", toshbosma, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev, matbaachilik, hattotlar, qo'lyozma asarlar, "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlar", "Qizil yoshlar ovozi", "Qizil Xorazm maorifi".

**Аннотация:** Вопрос о типографском деле, издательском деле и системе печати в Хорезме, являющийся сегодня одним из самых актуальных научных направлений, до сих пор не получил полного анализа в письменных источниках и исторических исследованиях. В частности, история типографий и издательств, действовавших в этой области, а также работавших в них печатников изучена слабо и, к сожалению, известна нам лишь по справочным данным. В связи с этим данная статья посвящена одной из актуальных проблем истории Хорезма, а именно изучению возникновения первых органов печати в Хорезмском оазисе, деятельности типографий и издательского дела в целом.

**Ключевые слова:** Мухаммад Рахимхан I, «Podshohi zamon tipolitografiyasi», литография, Атаджан Абдалов, Абдулла Балтаев, печать, каллиграфы, рукописи, "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlar", "Qizil yoshlar ovozi", "Qizil Xorazm maorifi".

**Summary:** The issue of printing, publishing and the press system in Khorezm, which is one of the most relevant scientific areas today, has not yet been fully analyzed in written sources and historical studies. In particular, the history of the printing houses and publishing houses operating in this area, the activities of the printers who worked in them, has been studied rather poorly and, unfortunately,

is known to us only as a simple reference. In this regard, this article is devoted to one of the current problems of the history of Khorezm, namely the emergence of the first press organs in the Khorezm oasis, the activities of printing houses and publishing issues in general.

**Keywords:** Muhammad Rahimkhon I, “Podshohi zamon typolitography”, lithography, Atajan Abdalov, Abdulla Baltaev, printing, calligraphers, manuscripts, “Inqilob quyoshi”, “Xorazm xabarlari”, “Qizil yoshlar ovozi”, “Qizil Xorazm maorifi”.

1920 yilda Xorazm Xalq Respublikasi ixtiyoriga bosmaxona jihozlari, elektromotor va harflar yuboriladi<sup>1</sup>. 1921 yilning oktyabrida va 1922 yilning sentyabrida Xorazmga ikki juft matbaa uskunalari bilan birgalikda matbaachi mutaxassislar, 700 kg ruscha va o'zbekcha (arab alifbosida) harflar, kichik elektr yuritgich va bosma mashinasi keltirildi<sup>2</sup>. Ushbu uskunalar faoliyatini yo'lga tushirishda Otajon Abdalov, Aleksey Salopov va Gustav Shneydel bilan birga ishlaydi<sup>3</sup>.

A. Boboxonov ma'lumotiga ko'ra Turkiston hukumati yo'llanmasi bilan Xorazmga kelgan Afzal Tohirov ham sohada faol ishlagan, ayni paytda “Inqilob quyoshi” gazetasiga muharrirlik qilgan.

Umuman olganda, Xorazmda nashr qilingan ilk gazetalarda asosan Sovet davlatida kechgan siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi masalalari yetakchilik qilganligini ko'rish mumkin. Umumiqtisodiyot taraqqiyotida agrar soha azaldan salmoqli o'rinni egallab, paxta va boshqa turdagi xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, qayta ishlash, xom ashyo ko'rinishida 5 yillik rejani bajarish masalalari shuning uchun ham matbuotning markazida turgan masalalardan bo'lgan<sup>4</sup>.

Davriy matbuotda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy XX asrning 20-yillaridagi masalalar ham o'rin olgan, jumladan, 1920 yillarning boshida Xorazmda 10 ta yangi usul maktablari ochilib, 1 ta maktab internat, o'qituvchilar seminariyasi, bitta shifokor hamda ikki nafar feldsherdan iborat 50 kishiga mo'ljallangan shifoxonaish boshlagan. Xonning qarorgohlaridan Toshhovli madaniyat va ma'rifat markaziga aylantiriladi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Тошпўлатова Д. Матбаачилик тарихидан. Воҳа солномаси. Урганч., “Хоразм”. 2010. – Б.39.

<sup>2</sup> Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., “Ўзбекистон”. 2011. – Б.109.

<sup>3</sup> Ҳаёт. Тошбосма иш бошлаганда. № 4. 28 январ – 3 феврал 2010 йил.

<sup>4</sup> Тошпўлатова Д. Матбаачилик тарихидан. Воҳа солномаси. Урганч., “Хоразм”. 2010. – Б.37.

<sup>5</sup> Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. – Ленинград., Издательство Ленинградского университета. 1984. – С.124.// [Elektron manba]:

1924 yilga kelib esa Xorazmda 24 ta maktab va bitta hammom bo'lgan. Matbuotda birinchi o'n yillikda Xorazmdagi maktablar soni 12 martaga oshganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi<sup>6</sup>. 1925 yilda madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun davlat byudjetining 22, 4% sarflangan, 1935 yilda bu sohaga davlat byudjetining 42,2 % sarflanadi<sup>7</sup>.

SHunday bo'lishiga qaramasdan 1925 yilda bo'lib o'tgan ikkinchi butun O'zbekiston qurultoyida O'zbekistondagi gazeta va jurnallar faoliyati keskin tanqid qilindi. Qurultoyda "Gazeta idoralarining yo'lga solinmaganligi, tajribali muxbir, ishchilarning kamligi firqa qo'mitalari tomonidan bu masalaga ahamiyat berilmaganligi, O'zbekistonda dehqon muhbirlari va devoriy gazetalarning shul kunga bo'lgan xoliga sababchidir" deyildi<sup>8</sup>.

1921 yilning iyulidan "Markaziy Ijroiya Komiteti Xabarlarini" ("Известия полномочного представителя РСФСР в ХХСР") gazetasi nashr etila boshlaydi, gazeta uch tilda: o'zbek, rus hamda turkman tillarida chop etilgan<sup>9</sup>.

Bu gazetaning O'zbekiston milliy kutubxonasida 1921 yili nashri amalga oshirilgan № 1-16 sonlari (iyul-avgust) saqlanmoqda. Gazetada Xorazm respublikasining kundalik turmushiga oid jarayonlar yoritib borilgan. Gazetada xorij xabarlarini "За красным рубежом" rukni ostida e'lon qilingan.

RSFSR dagi voqealar "По Советской России", Turkistondagi jarayonlar "Красный Туркестан", viloyat xabarlarini "Красный Хорезм" ruknlaridan joy olgan. Gazeta muharrirlari sifatida I.Bik, M.Alfin, R.Nyurinlar keltiriladi. Umumiy tirajini 800 nusxani tashkil etgan. I.Bik, M.Alfin, R.Nyurinlarning gazeta sonlarida xabarlarini RSFSR ideologiyasi doirasida tahlil qilingan shakldagi maqolalari nashr etilib borilgan. Gazetaning o'ziga xos jihati, ba'zi sonlarda gazeta chop etilgan sana bilan sarlavha qo'yilgan o'ziga xos "Kirish so'z" vazifasini bajargan sovet tuzumi bilan bevosita bog'liq bo'lgan maqolalar bilan boshlangan. Bu holat gazetaning 5-soni, 14-soni, 15-soni, 16-sonlarida ham kuzatiladi<sup>10</sup>. SHu bilan birga, viloyatning ilk gazetalaridan bo'lsa ham, dastlabki sonlaridanoq e'lonlarni uchratish mumkin

---

<https://www.shamardanov.ru/i-v-pogorelskij-istoriya-hivinskoj-revolycuzii-i-horezmskoj-narodnoj-sovetskoj-respubliki-1917-1924-gg-chast-2-glava-4.html>.

<sup>6</sup> Хорезмская правда. Подъем народного хозяйства Хорезма за 20 лет. № 251. 24 декабря 1944 г. – С.3.

<sup>7</sup> Хорезмская правда. Подъем народного хозяйства Хорезма за 20 лет. № 251. 24 декабря 1944 г. – С.3.

<sup>8</sup> Худойбергенов М. "Инқилоб куёши" нашрлари // Хоразм ҳақиқати. 1990, 23 январь.

<sup>9</sup> Насыров Б.Ф. Из Истории политико-массовой и культурно-просветительной работы в Хорезме. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 4. Т., "Фан", 1967. – С.54.

<sup>10</sup> Атамуратова Д. Р. Хоразм даврий матбуотида "Инқилоб куёши" ҳамда "Известия" газеталарининг ўрни: тарихи ва таҳлили // Ўтмишга назар. 2022, № S1-1. – Б.77.

edi. Bu e'lonlar asosan hukumat e'lonlari bo'lgan, saqlanib qolgan sonlarda e'lonlardan so'ng "Советский календарь" nomli taqvim chiqarilgan, unda milodiy hamda hijriy sanalar, ya'ni gazetaning nashri amalga oshirilgan shu son sanasi va keyingi son nashriga qadar bo'lgan sanalar keltirilgan. Haftada 3 marotaba nashr etilganligini hisobga olinsa, 2 kunlik taqvim (juma kungi sonda 3 kunlik taqvim) va shu sanalarda sodir bo'lgan muhim voqealar qayd etilgan.

Arxiv manbalarini o'rganish jarayonida Xorazmda chop qilingan birinchi gazeta "Inqilob quyoshi" gazetasi bo'lganligi yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Ammo, bu gazetaning nomidan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, bu gazeta ko'proq sovet mafkurasiga xizmat qilgan. Ya'ni, ilgari jadidlar tomonidan nashr qilingan ko'pgina gazetalar asosan mahalliy siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hamda yangiliklarga bag'ishlanganligi uchun ular faoliyati uzoqqa cho'zilmay rus ma'muriyati tomonidan bu gazetalar faoliyatiga chek qo'yilgan.

Gazeta milliy chegaralanishdan so'ng Xorazm okrugi firqa qo'mitasi, okrug ijrokomi, okrug kasabalar sho'rosi va okrug yoshlar qo'mitasining nashr afkori bo'lib chiqa boshlagan<sup>11</sup>.

1920 yili XXSR hukumati vakillari B.Salimov rahbarligida Moskvaga tashrif buyuradi, bu voqelarni yoritib o'tgan "Советская Сибирь" gazetasining 1920 yilning 10 avgustdagi sonida Xorazmda "Inqilob quyoshi" gazetasi chop etilayotgani haqida ta'kidlab o'tilgan<sup>12</sup>.

"Inqilob quyoshi"ning dastlabki nashrlari toshbosma o'lchamida 30x42,5 hajmda bo'lib, haftada bir marotaba chop qilingan<sup>13</sup>. Ushbu gazetaning 1924 yildagi 5 mart sonida tiraji 300-400 nusxada chop etilgani aytiladi<sup>14</sup>. Toshbosmada ishlash qulay bo'lmaganligi sababidan, bir marotaba nashr etilgan. Jumladan, Og'ir qolip (tosh)ni qo'lda bosmaga tayyorlash, navbatdagi sahifa toshni o'zgartirish, litografiya o'qini ikki matbaachi mutaxassis aylantirishi, bosish uchun bo'yoq tayyorlash ishlari matbaachidan juda og'ir qo'l mehnatini talab qilar edi<sup>15</sup>.

<sup>11</sup> Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870 – 1927). – Тошкент- Самарқанд: Ўздавнашр, 1927. – Б.73.

<sup>12</sup> Советская Сибирь. Приезд Хивинской делегации. № 177. 20 августа 1920 г. – С.1.

<sup>13</sup> Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., "Ўзбекистон". 2011. – Б.108.

<sup>14</sup> Насыров Б.Ф. Из Истории политико-массовой и культурно-просветительной работы в Хорезме. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 4. Т., "Фан", 1967. – Б.54.

<sup>15</sup> Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., "Ўзбекистон". 2011. – Б.108.

“Inqilob quyoshi” 1920 yilning martidan nashr etila boshladi. Dastlab toshbosmada keyinchalik mix bosmada nashr etiladi, ilk sonlari katta formatda ikki bet ko’rinishida bo’lgan<sup>16</sup>. Gazeta o’zbek va turkman tillarida nashr etilgan<sup>17</sup>.

1922 yildan boshlab “Inqilob quyoshi”ning haftada 2 martadan nashr etila boshlanganini ko’ramiz, 1940 yilda gazeta kundalik chop qilinganligini hisobga olsak, yoki dastlabki nashr haftada bir marotaba bo’lganligidan kelib chiqib, gazetaning yigirma yillik nashr faoliyatidagi yutuqlari haqiqatda ko’zga ko’rinarli ekanligini hisobga olsak arziydi. Gazetaning birinchi muharriri mulla Bekjon Rahmonov bo’lgan. Bekjon Rahmonov Nozirlar Kengashida ziyolilar vakili bo’lib, “Yosh xivaliklar” harakati a’zosi, o’z davrining ma’rifatparvarlaridan biri bo’lgan<sup>18</sup>.

1923 yilda XNSRda “Inqilob quyoshi”, “Xorazm xabarları”, “Qizil yoshlar ovozi”, “Qizil Xorazm maorifi” kabi gazetalar chop etilgan<sup>19</sup>.

“Inqilob quyoshi” gazetasining 1924 yil 5 may sonida Xivada Xalq muzeyi ochiladi. Bu muzeyga Moskvadan 285 tarixiy eksponat keltirilgani xabar beriladi<sup>20</sup>. Gazetada savodsizlikni yo’qotish maktablari haqida doimiy xabarlar chop etilgan. Gazetaning 1924 yil 7 yanvardagi sonida bunday maktablarning soni 30 ga yetgani haqida xabar berilgan<sup>21</sup>.

Muxbirlar K.Boltaev, Q.Beregin, O.Safaeva, U.Qurboniy, M.Ismoiliy, E.Devonov, X.Eshmuratov singari partiya xodimlari va qishloq xo’jaligi muxbirlari Faqiriy, Xorazmiy, Mutrib, Partav, CHokar, Mug’anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi, shoirlar gazeta faoliyatida ishtirok etishgan. 1925 yilga kelib “Inqilob quyoshi” gazetasi bir oyda 25 marta chiqa boshladi, oyiga 8600 nusxaga ko’paytirildi<sup>22</sup>.

<sup>16</sup> Атамуратова Д. Р. Хоразм даврий матбуотида “Инкилоб куёши” ҳамда “Известия” газеталарининг ўрни: тарихи ва таҳлили // Ўтмишга назар. 2022, № S1-1. – Б.75.

<sup>17</sup> История Хорезмской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.): сборник документов: пер. с узб. / АН СССР, Среднеаз. секция Науч. совета по комплексной проблеме "История Великой Октябрьской соц. революции"; сост.: П.А. Агафонов, С.Н. Шакирова, С.Д. Давлетшаева; авт. предисл. Х.Ш. Иноятов. – Т., “Фан”. 1976. – С.11.

<sup>18</sup> Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. – Ленинград., Издательство Ленинградского университета. 1984. – С.118.// [Elektron manba]: <https://www.shamardanov.ru/i-v-pogorelskij-istoriya-hivinskoj-revolycuzii-i-horezmskoj-narodnoj-sovetskoj-respubliki-1917-1924-gg-chast-2-glava-4.html>.

<sup>19</sup> История Хорезмской Народной Советской республики (1920-1924гг.).– С.16.

<sup>20</sup> Насыров Б.Ф. Из Истории политико-массовой и культурно-просветительной работы в Хорезме. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 4. Т., “Фан”, 1967. – С.54.

<sup>21</sup> Юлдашев Н. Начало строительства Советской культуры в ХНСР. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. №2. – Т., “Фан”, 1970. – С.64.

<sup>22</sup> Хоразм ҳақиқати. 1970 йил 3 апрель сони.

“Inqilob quyoshi” Xiva shahrida 1928 yilning iyun oyi oxirigacha chop qilinadi. 1921 yil martidan 1922 yil mayigacha “Xorazm xabarleri” nomi bilan nashr etilgan. Nashriyot 1928 yil iyulidan Urganch shahrida ish faoliyatini boshlaydi. Gazeta oʻz faoliyatini boshlagan davrlarda, tahririyatda – Zokir Bekchurin, Madrahim Saydashev, Habib Samigullin, Muhammad Zokirov, Umar Qurboniylar faoliyat olib borishgan<sup>23</sup>.

“Inqilob quyoshi” gazetasi 1939 yil avgust oyidan yangi nom bilan “Xorazm haqiqati” deb atala boshlandi. Xorazmda 30-yillar oxiriga kelib oʻttizga yaqin gazeta va jurnallar oʻzbek, rus, turkman, qoraqalpoq tillarida chop etilardi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Атамуратова Д. Р. Хоразм даврий матбуотида “Инқилоб куёши” ҳамда “Известия” газеталарининг ўрни: тарихи ва таҳлили // Ўтмишга назар. 2022, № S1-1. – Б.73-79.
2. Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., “Ўзбекистон”. 2011. – 118 б.
3. Зиё Саид. Танланган асарлар. – Тошкент: Ф. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 208 б.
4. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). О налоге. №.5. 15 июля 1921 г. – С.1.
5. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 8 августа 1921 года. №.14.– С.1.
6. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 10 августа. №.15.1921г. – С.1.
7. Известия (“Известия полномочного представителя РСФСР в ХНСР”). Хива, 12 августа.№.16. 1921 г. – С.1.
8. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.): сборник документов: пер. с узб. / АН СССР, Среднеаз. секция Науч. совета по комплексной проблеме “История Великой Октябрьской соц. Революции”; сост.: П.А. Агафонов, С.Н. Шакирова, С.Д. Давлетшаева; авт. предисл. Х.Ш. Иноятов. – Т., “Фан”, 1976. – 374 с.
9. Насыров Б.Ф. Из Истории политико-массовой и культурно-просветительной работы в Хорезме.// Общественные науки в Узбекистане. № 4. Т., “Фан”, 1967. – С.53-55.
10. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. – Ленинград., Издательство

<sup>23</sup> Тошпўлатова Д. Матбаачилик тарихидан. Воҳа солномаси. Урганч., “Хоразм”. 2010. – Б.39.

- Ленинградского университета. 1984. – 228 с.// [Elektron manba]:  
<https://www.shamardanov.ru/i-v-pogorelskij-istoriya-hivinskoj-revolyuczii-i-horezmskoj-narodnoj-sovetskoj-respubliki-1917-1924-gg-chast-2-glava-4.html>.
11. Советская Сибирь. Приезд Хивинской делегации. № 177. 20 августа 1920 г. – С.1.
  12. Тошпўлатова Д. Матбаачилик тарихидан. Воҳа солномаси. Урганч., “Хоразм”. 2010. – 78 б.
  13. Хоразм ҳақиқати. 1970 йил 3 апрель сони.
  14. Хорезмская правда. Подъем народного хозяйства Хорезма за 20 лет. № 251. 24 декабря 1944 г. – С.3.
  15. Худойберганов М. “Инқилоб қуёши” нашрлари // Хоразм ҳақиқати. 1990, 23 январь.
  16. Юлдашев Н. Начало строительства Советской культуры в ХНСР.// Общественные науки в Узбекистане. №2. – Т., “Фан”, 1970. – С.61-63.
  17. Ҳаёт. Тошбосма иш бошлаганда. № 4. 28 январ – 3 феврал 2010 йил.